



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 98-102.

7. Sh, A. va Taylakov, TI (2020). Paramfistomatoz sistematikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenez, kasallikning kelib chiqishi va yangi davolash usullari. Amerika veterinariya fanlari va yovvoyi tabiatni kashf qilish jurnali , 2 (06), 1-6.
8. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1778-1781.
9. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
10. Shavkat, A., Kural, A., & Maryam, Y. (2025). THE IMPLEMENTATION MECHANISM OF DIGITAL TRANSFORMATION TO ENHANCE EDUCATIONAL EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions, 2(4), 93-97.

“BROILER GO’SHTINI YETISHTIRISHDA GERMANIYA TAJRIBASI”

Turgunbaev R.U¹., Umirov N.D².

*¹Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

²Toshkent davlat agrar Universiteti

Kirish. Germaniyaing axolisi 83mln 631 ming kishini tashkil qiladi. Germaniya boʻylab taxminan 626,7 mln broiler tovuqlari 2024 yili boqilgan va shuning teng yarmi Niedersachsen viloyatiga toʻgʻri keladi. 95% dan ziyod Broiler tovuqlari intensiv ravishda, 4 haftadan 6 haftagacha va oʻrtacha vazni 1,5 kg dan 2,7 kg tirik vazngacha boqiladi. Broiler tovuqlarini saqlashda; yopiq tovuqxonalar, xavo kirgizish ventillari, xavo soʻrish ventilyatorlari, yaʼni majburiy xavo aylantirish sistemasi (salbiy bosim) dan foydalaniladi. Kishi boshiga Germaniyada 14,6 kg tuxum va 13,9 kg Broiler goʻshti istemoli toʻgʻri keladi.

Germaniyada ananaviy marketing va integratsiya strategiyasi zanjirli vertikal ishlab chiqarish bilan ifodalanadi. Bu oʻz ichiga yem zavodi, Ota ona zotlar xoʻjaliklari, joʻja ochirish sexlari, Broiler boquvchilar va broiler tovuqlarini soʻyuvchi sexlari bir birlari bilan integratsiyalashgan va aniq kelishuvlar asosida birga ishlashadi. Bu zanjirli Sistemada xamma yoʻnalsihlar oʻz vazifalarini aniq bajarishsa, Sistema muammosiz ishlaydi va bu zanjirda qatnashgan har bir soxaga foyda blan chiqadi.

2009 yili 1 Oktyabrdan boshlab Germaniya Federal kengashi “Hayvonlarni himoya qilish-foydali xayvonlarni saqlash tartibi toʻgʻrisidagi nizom” (Tierschutz-Nutztierhaltungsverordnung) qonuniga oʻzgartirishlar kiritdi. Bu qonunlar kitobining 4 boʻlimidagi Broiler tovuqlarini saqlashda qoʻyiladigan talablarni joriy qilishdi. Masalan 17 Paragrifda “Kasbiy Malaka” sertifikatini tartibga solindi.

Asosiy qism. Semirtirish jarayoni quyidagicha amalga oshirildi.

Bugungi kunda 3 xil semirtirish usullari bor; **Qisqa muddatli semirtirish** 28 kundan 30 kungacha va tirikvazni 1550 gr dan 1750 gr gacha.

Va soʻyilgan tanasi asosan butunligicha, qisman boʻlingan, yangi (svejiy) yoki muzlatib quyilgan xolatda sotuvga chiqariladi. **1m² / 22 dan 24** gacha joʻjalar kirgiziladi. Va soʻyilayotgan kungacha **1m² / 35 kg** toʻgʻri keladi. Bu usulda 8,1 marttagacha bir yilda Broiler tovuqlarini saqlash mumkin. Goʻshtga nisbatan yem sarfi 1:1,60. “Hayvonlarni himoya qilish-foydali

xayvonlarni saqlash tartibi to'g'risidagi nizom" ga Qisqasemirtirish jarayonida $1\text{m}^2/35\text{kg}$ tirik vazn saqlashgacha chegaralab quyilgan. 1 ta tovuqning vazn chagarasi **1600gr** qilib belgilangan.

O'rta muddatli semirtirish 34 kundan 38 kungacha, 1950gr dan 2400gr tirik vazngacha boqiladi. $1\text{m}^2 / 12$ dan **18** gacha jo'jalar kirgiziladi. Bu usulda 28-30 kunlarda broiler tovuqlarini yatarli vaznga erishganlarini oldindan saralab olinadi va qolganlari yana 7 kungacha saqlash mumkin.

Tirik vazni **1600gr** dan yuqori bo'lsa, tovuqlarning zichligi $1\text{m}^2/39\text{kg}$ dan oshmasligi zarur. Bu usulda esa 6,7 marttagacha bir yilda Broiler tovuqlarini saqlash mumkin. Go'shtga nisbatan yem sarfi 1:1,72.

Uzoq muddatli semirtirish 39 kundan 41 kungacha, 2500gr dan 3300gr tirik vangacha boqiladi. $1\text{m}^2 / 18,5$ gacha jo'jalar kirgiziladi. Bu jarayonda xo'roz va tovuq broiler vaznlari, ularning yoshlari usib borishi bilan farqlanib boradi. 35 kunga kelib bu farq 400gr gacha bo'lsa, 41 kunga kelib 600gr gacha farq qiladi. Oldindan saralab olish 15-20% foizgacha bo'ladi. Broiler tovuqlarning zichligi $1\text{m}^2/39\text{kg}$ dan bu usulda xam oshmasligi zarur. Bu usulda esa 6,5 marttagacha bir yilda Broiler tovuqlarini saqlash mumkin. Go'shtga nisbatan yem sarfi 1:1,8.

Oldindan saralab olish asosan **O'rta muddatli semirtirish**da 28-30 kunlarda amalga oshiriladi va 20-30% gacha broiler tovuqlari 1500-1600 gr vaznga yetgach saralanadi. Va **Uzoq muddatli semirtirish** 2000-2200gr vaznga yetgach 33-35 kunlarda 15-20% saralanadi.

Menejmenti. Jo'jalar kelishidan oldin broilerxona tozalanadi va suvni bosim bilan Purkagichda shiftlar, xavo tuynuklari va ventilatorlar yuvuladi. Va keyin shampooon ko'pik bilan tozalanadi. Suv ichish liniyalariga 24 soat ximikat solib quyiladi va undan sung yuvib tashlanadi. Broilerxona juda yaxshi qurigan bo'lishi kerak, desenfeksiya ishlarini amalga oshirish uchun. Va ishning oxirida yopishqoq plastinka yordamida na'munalar olinadi va Laboratoriyaga jo'natiladi.

Broilerxona tozalangach, desenfeksiya qilingach va yetarlicha qizdirilgach yerlariga to'shalma sochiladi. To'shalma material sifatida maydalab qirqilgan bug'doy somoni, taxta qipigi, maydalab qirqilgan makka poyasi, somon granulat va pelletslar ishlatiladi. To'shalmaning qalinligi 0,6 dan 1 kg/m² qilib sepiladi. To'shalmaning sifatiga aloxida etibor berish kerak. Bu jo'jalarning sog'ligi uchun o'ta muxim. Jo'jalar atrofiga xam katta talablarni qo'yadi. Shu sababli broilerxona xarorati va xavoning nisbiy namligi muxim ro'l uynaydi. Jo'jalarni broiler xonaga kirgizish vaqtida 34°C-36°C bo'lishi kerak. Chunki jo'jalar birinchi uch kunda o'z tana xaroratini nazorat qila olishmaydi. Jo'jalar katta bo'lgan sari 20°C-16°C xarorat tushub boradi. Qo'yidagi jadvalda tavsiya etiladigan broilerxona xarorati

1-Jadval.

Tavsiya etiladigan broilerxona xarorati

Yoshi kunlarda	Infra qizil isitgich	Butun xona isitish
1-2	32-31	34-36
3-4	30	31-32
5-7	29-28	28-30
8-14	28-26	27-29
15-21	25	25-27
22-28	24	23-25
29-35	22-20	21-23
26-42	20-18	18-21

Broilerxonaning xaroratini nazorat qilish uchun eng yaxshi kursatkich bu jo'jalar o'zlarini qanday tutayotganiga etibor berish kerak. Agar jo'jalar bir birlariga tiqilib turishgan bo'lsa xona sovuq va ular bir birini qisishi natijasida ayrimlarini o'ldirib qo'yadi. Agar xona issiq bo'lsa, jo'jalar og'zini ochib nafas olayotgan va patlarini yoyib olgan va xolsiz bo'ladi. Ikkita xolatda xam tezda xaroratni to'g'irlash kerak. Broilerxona yerining xarorati 30°C bo'lishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, broilernxona ichidagi xarorati va nisbiy namligi bir biriga chambarchas bog'liq. Va broilernxona ichidagi xarorati subyektiv „xis etiladigan xorarat“ xam deb ataladi. Bir xil xaroratda xavodagi issiqlik miqdori namlik oshishi bilan ortadi. Boshida, jo'jalar broiler xonaga kelgan vaqtida, namlik kam va yer quruq bo'ladi. Lekin jo'jalar vaqt o'tishi, semirishi bilan xavoning nisbiy namligi xam ortib boradi. Asosiy sabablari, suv ichish sistemasidagi ichadigan suvining 24 soat turishi, tovuqlardan chiqayotgan nam xo'jati. Bunday xolatni esa gaz isitgich va ventilatsiya orqali boshqariladi. Aralash xavo sistemasi minimal ventilatsiya bilan jo'j balandligida eng yaxshi natija beradi.

“Hayvonlarni himoya qilish-foydali xayvonlarni saqlash tartibi to'g'risidagi nizom”ga ko'ra minimal 4,5m³/kg tirik vazn va soatiga bo'lishi qatiy, qonun bilan yozib quyilgan. Muximi, ichki aralashgan xavoni, ya'ni zararli-gazlarga to'yingan xavoni ventilatsiya yordamida chiqarib tashlash zarur. Va faqat shu yo'l bilan biz broiler tovuqlaidan kutgan najjalarimizga erisha olamiz.

“Hayvonlarni himoya qilish, foydali xayvonlarni saqlash tartibi to'g'risidagi nizom”ga ko'ra CO₂ ning miqdori 3000 ppm dan va NH₃ ning miqdori esa 20 ppm dan oshmasligi kerak.

Yorug'lik miqdori va muddati. Broilernxona xarorati bilan birgalikda yorug'lik xam o'ta muxim ro'l o'ynaydi. “Hayvonlarni himoya qilish, foydali xayvonlarni saqlash tartibi to'g'risidagi nizom” da 20 lux jo'jalarning balandligida bo'lishi va 7 kundan so'ng kamida 6 soat qorongulik bo'lishi qonunda belgilab qo'yilgan.

Jo'jalarni kiritgan kunimizdan boshlab 3 kun davomida 24 soat yorug'lik beriladi, sababi shu yo'l bilan jo'jalar suvni va yemni oson va tez topishadi. Zamonaviy broilernxonalarda jo'jalar ayrim vaqtlarda devorlarga tiqilib suyanib oladi. Sababi esa kuchli yorug'lik miqdori bo'ladi va jo'jalar qorongulik izlab qolishadi. Bunday vaqtda esa yorug'likni miqdorini kamaytirish kerak.

3 Kundan so'ng 16 soat yorug'lik berilishi va 6 soat qorongulik bo'lishi belgilab qo'yilgan. 6 soat qorongulik vaqtida favqulotda yoritish tizimi qo'shilgan bo'ladi va 2 lux yorug'lik miqdori bo'lishi kerak.

Broilernxonalarni yoritishda LED (barqaror yotug'lik) yoritgichlaridan foydalaniladi. LED yoritgichlari 12.000 soatgacha muammosiz ishlaydi va pirillamaydi. Agar broilernxonaning qayeridandir quyosh yorug'ligi to'g'ridan-to'g'ri yerga tushishi, tushgan bo'lsa, o'sha yerda turgan tovuqlar bir birini patlarini yeyishni boshlaydi, bu ea kannibalizmusga olib kelishi mumkin.

Broilernxonaning qurilishi.

Broilernxonalar asosan kunda gishtlardan, tayyor beton plitalardan, yogochlardan yoki temir konstruksiyalarida quriladi. Bugungi kunda temir konstruksiyalaridan foydalanib uzunligi 85m* eni 20m va balandligi 3m qilib qurish va tom qismining nishabligi esa 18° qilib qurish keng tarqalayabdi.

Asosiy shamol yunalishi aniqlab olinib unga gorizonta ravishda broilernxona quriladi.

Xulosa. Broiler go'shtini yetishtirishda Germaniya tajribasiga tayangan holda, saqlash muddatlari, xona harorati, saqlash tartibiga rioya qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet; Worldometer (www.Worldometers.info), euromeatnews.com
2. Hanchenhaltung / Dr. Peter Hiller. Oldenburg 3-14 b.
3. Haltung von Junhennenmasthühnern / DLG-Merkblatt 347